

Termiz shahrida amalga oshirilayotgan islohotlar keng jamoatchilikka yetkazilmoqda



Termiz shahrida amalga oshirilayotgan islohotlar keng jamoatchilikka yetkazilmoqda Bugun, 9 iyunъ kuni Yoshlar markazi binosida Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Surxondaryo viloyatiga joriy yil 1-2-iyunъ kunlarida tashrifi davomida belgilangan vazifalar, dasturlar va boshqa masalalar bo'yicha Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari tomonidan o'tkaziladigan targ'ibot-tashviqot tadbirini viloyat Kengashining 2021 yil 4 iyundagi № 09- 01/380-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida belgilab berilgan ish-reja asosida tashkil etildi.

Mazkur tadbirga shahardagi deputatlar, mahalla faollari, nuroniy otaxonlar, yoshlar, ayollar hamda keng jamoatchilik jalb qilinib, 190 nafar kishi qamrab olindi. Tadbirni 2-sektor rahbari, shahar prokurori Mamatqulov Xudoynazar Panjievich ochib berdi. Shuningdek, Xalq deputatlari shahar Kengashi deputati, Termiz shahridagi 11-maktab o'qituvchisi Normuradova Dilbar Abdikosimovna tomonidan Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda belgilangan vazifalar xususida ma'ruza qildi. Tadbirda "Ayollar", "Yoshlar" va "Temir" daftarlarga kiritilgan oilalar bilan olib boriladigan vazifalar Termiz shahridagi 2 - sektor mas'ul kotibi Qosimov Sherzod Jaxongirovichning ma'ruzasi tinglandi.

Ochiq muloqot jarayonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Targ'ibot tadbiri juda ko'tarinki, qizg'in tarzda o'tdi.

